

TURON GEOGRAFIK JOY NOMINING MANBALARDA KELTIRILISHIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Mahliyo A'zamova Panji qizi

Termiz davlat universiteti tayanch doktoronti
azamovamahliyo@gmail.com+998931019691
[ORCID 0009-0003-5364-861X](https://orcid.org/0009-0003-5364-861X)

Annotatsiya Biz bu maqolada Turon atamasining qariyib ming yillar ilgari qanday qo'llanilgan. Qaysi manbalarda qanday geografik chegaralar bilan chegaralangan ekanligi haqida ma'lumot berildi. Ma'lumotlar asosan qadimgi manbalar asosida yoritiladi. Turon atamasining eng dastlab qo'llanilish davrini aniqlashtirilib olindi. Nafaqat yozma manba balki arxeologik topilmalarda ham Turon atamasining uchrashi yoritib beriladi. Bu atamaga ma'nodosh bo'lgan yana bir qancha atamalar bir vaqtda qo'llanilib kelinganligi ham devoriy sur'atlardan va tanga, muhrlardan isbotlab berildi. Bu manbalarni o'qish jarayoni va uni ommaga tadbiq etish jarayoni haqida olimlarimizning fikrlari ham yoritilib berildi. Maqolada davriy chegara Turkiston atamasining qo'llanilib boshlagan vaqtgacha olingan. Maqolada Turon so'zining asl ma'nosi nima ekanligi keng yoritib berilgan. Tur xalqining bu atamaga qanchalik aloqasi bor ekanligi, hududiy chegaralari ham atroflicha tahlil qilib berildi. Bundan tashqari ma'nodosh ishlatilgan atamalarning qo'llanilish jarayoni, dastlab qaysi hududlarga ishlatilganlik haqidagi ma'lumotlar yoritildi.

Kalit so'zlar: “Avesto”, “Transokiana”, “G‘arbiy O‘lka”, “Al-Haytal”, “Bilod-al Turk”, “Turiston”, “Turgiston”, turkiy, tarixiy-geografik atama, muhr, tamg‘a.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНО УПОМИНАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО НАЗВАНИЯ ТУРАН В ИСТОЧНИКАХ

Аннотация В этой статье мы рассмотрим, как термин Туран использовался тысячи лет назад. Какие источники предоставили информацию о том, какими географическими границами он ограничен? Информация в основном основана на древних источниках. Определен самый ранний период использования термина Туран. Упоминание термина Туран зафиксировано не только в письменных источниках, но и в археологических находках. Тот факт, что в то же время использовались и другие термины, являющиеся синонимами этого термина, подтверждается также настенными росписями, монетами и печатями. Также были освещены мнения наших ученых о процессе чтения этих источников и их применении в обществе. В статье хронологическая граница взята со временем, когда начал использоваться термин Туркестан. В статье подробно объясняется истинное значение слова Туран. Также подробно проанализированы степень соотнесения

народа тур с этим термином, а также его территориальные границы. Кроме того, была предоставлена информация о процессе использования синонимичных терминов и регионах, в которых они изначально использовались.

Ключевые слова: «Авеста», «Трансоксания», «Западная земля», «Аль-Хайталь», «Билод-аль-Турк», «Туристан», «Тургистан», тюркский, историко-географический термин, печать, штамп.

SOME CONSIDERATIONS ON THE MENTION OF THE GEOGRAPHICAL PLACE NAME TURAN IN SOURCES

Abstract In this article, we will explain how the term Turan was used thousands of years ago. In which sources, information was provided about what geographical boundaries it was limited to. The information is mainly based on ancient sources. The period of the earliest use of the term Turan was determined. The occurrence of the term Turan in not only written sources but also archaeological finds is highlighted. The fact that several other terms synonymous with this term were used at the same time is also proven from wall paintings, coins, and seals. The opinions of our scholars about the process of reading these sources and its application to the public are also highlighted. The article takes the period boundary up to the time when the term Turkestan began to be used. The article extensively explains what the true meaning of the word Turan is. The extent to which the Tur people are related to this term and its territorial boundaries are also analyzed in detail. In addition, information was provided on the process of using synonymous terms and the regions in which they were originally used.

Key words: “Avesto”, “Transoxiana”, “Western Land”, “Al-Haytal”, “Bilod-al Turk”, “Turistan”, “Turgistan”, Turkic, historical-geographical term, seal, stamp.

KIRISH

Markaziy Osiyo mintaqasini har tomonlama o‘rganish zamonaviy dunyoning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyorning tarixiy geografiyasi uzoq davrlarni o‘z ichiga olgan keng tushuncha hisoblanadi. Bu boradagi ma’lumotlar turli manbalarga asoslanadi. Qadimgi davr uchun arxeologik topilmalar asosida qilingan xulosalar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa. O‘rta asrlar tarixi uchun adabiy manbalardan olingan ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Birinchi yozma manbalar turli joylardan topilgan tosh bitiklar, uzoq o‘tmishda yozilgan va bizning davrimizgacha yetib kelgan kitoblardir. Qadimgi va o‘rta asrlarda O‘zbekistonning geografik nomlari ilmiy manbalarda ham, rasmiy hujjatlarda ham to‘liq tizimlashtirilmagan. Darhaqiqat, bir qancha tarixiy, lingvistik va rasmiy manbalar geografik nomlari bilan mashhur. Biz biladigan “Turon” nomining asl ma’nosini qanday? Bu nomning kelib chiqish jarayonichi?

Turon – qadimdan o‘zining strategik jihatidan muhim, ya’ni Sharq va G‘arb, shuningdek Shimol va Janub mamlakatlarini bog‘lab turuvchi yo‘llar kesishuvida joylashganligi tufayli har doim jahonning buyuk davlatlarini qiziqtirib kelgan va ularning bosqinchilik urushlari qurbaniga aylangan. Turonga kelgan har bir bosqinchi uni o‘zining

tarixiy geografik an'anasiga ko'ra turlicha nomlar bilan atagan. Shuning uchun Turon mintaqasi turli xil chog'larda va manbalarda turli maqsadlarda va ma'nolarda ishlatilgan tarixiy-geografik atama. Bu atamaning dastlabki qo'llanilish vaqtin aniq emas. Turon atamasining qachon va kim tomonidan qo'llaninib fanga olib kirilganligi haqida ma'lumot yo'q. Dastlab qaysi hududlarga nisbatan ishlatila boshlanganligi haqida ma'lumot juda kam.

Turon, Turkiston, , Markaziy Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekiston hududi joy nomlari ko'hna yodnomalarda ham qayd qilingan. Bu qaysi hududlar ekanligiga amin bo'lishimiz zarur. Turon hududi – geografik jihatdan g'arbda Kaspiy dengizidan, sharqda Markaziy Qozog'istongacha, shimolda cho'l hududidan janubda eng yirik Osiyo cho'llari Qoraqum va Qizilqo'mning janubiy chekkalarigacha bo'lgan hududlarni va ularda yashovchi turkiy xalqlar vatanini anglatadi. Turonning markaziy qismi geografik jihatdan "Turon pasttekisligi" deb ataladi va asosan, Markaziy Osyoning shimoli-g'arbiy qismini o'z ichiga oladi. Uning chegaralari g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Ural tog'igacha, sharqda Tyanshan etaklarigacha, janubda esa Pomir va Kopettog' tog'larigacha borib taqaladi[III. Ўлжаева 2017.27].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Turon" atamasi jug'rofiy tushuncha ko'rinishida deyarli qo'llanilmaydi. Avestoda, ahamoniylar chog'i bitiklarida, qadimgi yunon mualliflarining asarlarida va xitoy solnomalarida Markaziy Osyoning milodgacha bo'lgan tabiatni va xalqlari haqida xabarlar qayd etilgan. O'rta yuzyilliklar chog'i uchun ham boy yozma meros mavjud bo'lib hisoblanadi. Ular asosan arab, fors va turkiy tillarda yozilgan. Bilamizki, geografik nomlar tarixini bilish uchun ko'proq geografik va tarixiy-geografik asarlardan foydalilanadi. Har bir chog' uchun alohida asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, Eng qadimgi yozma manbalardan biri bo'lgan "Avesta", mil.avv IV mingyillikka tegishli bo'lgan Behustun bitiklari, Eron va Turonning eng qadimgi hayoti haqida yozilgan "Shohnoma" dostoni, muallifi noma'lum bo'lgan "Hudud ul-olam", Boburning "Boburnoma", Abulg'ozzi Bahodirxonning "Shajarayi turk", Mahmud ibn Valining "Bahr-ul asror" [17-yuzyillik] va Xitoy manbalarida ham ma'lumotlar keltirilgan[О.Бўриев, 1997.4b]. Ushbu asarlarni o'rganish natijasida, Turon va Turkiston atamasi qaysi chog'da paydo bo'lgani haqida olimlarning turlicha fikrlari va xulosalariga ham duch kelinadi.

Turon Markaziy Osyoning tarixiy-geografik nomi bo'lib, bu atamaning kelib chiqishi birinchi marta Avestoda qayd etilgan tur qabilasidan asos qilib olingan. Keyinchalik qadimiylar Eron mifologiyasida tilga olingan milodan oldingi 1-mingyillik boshlarida turlar Eron qishloq xo'jaligi vohalariga qarama-qarshi bo'lgan yirik harbiy-siyosiy birlashma bo'lgan. Tur etnonimi Turon toponimiga asos bo'lgan. Bu haqida ma'lumotlar tarixiy adabiyotlar va hujatlarda, arab-musulmon va milliy tarixiy-geografik adabiyotlarda uchraydi[Махмуд ибн Вали, 1977.113b]. Muhammadhakimxon To'ra asarida kiltirilishicha Turon hududiga Chindan tortib to Xurosongacha hududlar kirishi yozilgan[Муҳаммадҳакимхон Тўпса, 2010. 307]. Asarda "*Misr malikasi Misr bozoriga*

tushadi. U yerda Movoraunnahrlik ikki kishining bir biri bilan gaplashib o'tirganini ko'radi. Salom berib, yonlariga o'tiradi. Qayeriksizlar deb so'raydi. Ular esa, "biz Turon iqlimi xalqidan, aniqrog'i Farg'ona shahridanmiz" deb javob berishibdi. Ular malikaga she'r aytib biradi. Malika xursand bo'lib "Sizning Turkistonda xam she'r bitish uddasidan chiqadigan kishilar bormi" deb so'raydi[O'sha asar 603]. Bu davrda Turon ham, Movoraunnahr, Turkiston ham deb qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Eron tadqiqotchilarining asarlarida Turon, turklar yoki turkiylar kabi so'zlarning kelib chiqishi hamda manbaviy asosini yoritilishga bag'ishlangan ayrim ishlarda tadqiqot ob'ekti sifatida uchraydi. Turon o'rniga ko'prok forslar va arablar qo'llagan tarixiy atamalardan foydalanish kuzatiladi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo deb ataluvchi mintaqa davlatlariga nisbatan "Eronning tarixiy hududlari" "Yo'qotilgan hududlar", "Katta Xurosonning yetishmayotgan qismlari", "Olib qo'yilgan hududlar", "Eronning shimoli-sharqiy qismlari" sifatida qaraladi. Hatto ba'zi tadqiqotlarning sarlavhasi ham yuqoridagi mazmunda nomlangan[Э. Хожамбердиев, 2024.77-78b]. Turon hududini bronza davridan hozirgacha qanday nomlar bilan atalishi juda ahamiyatli hisoblanadi. Dastlab bu mavzu yuzasidan izlanish olib borgan olimlar va ularning tadqiqotlari bilan tanishib chiqish zarur. Bu borada taniqli olimlar A. O'rinofov, A. Asqarov, A. Ahmedov, M. Is'hoqov, B. Mannonov, Sh. Kamoliddin, xitoysunos A. Xo'jayev va turkolog Q.Mahmudov, G'. Boboyorovlar tadqiqotlar olib borgan bo'lishlariga qaramay, ushbu masala bo'yicha haligacha munozarali qarashlar mavjud[A. Ўринбоев 1960. 84-85]. Bundan tashqari, chet ellik olimlarning asarlaridan ham foydalanildi. N. Sims Williams[Sims Williams, 2016.262-266], yapon olimi Y. Yoshida[F. Бобоёров, 2015. 17-24], eronshunos olim R. Fraylar[P. Фрай, 2002] Turon atamasi haqida o'z asarlarida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Avesto davrida Turon hududini aniqlash mushkul ish hisoblanadi. **Avestoda** "Turon" atamasi bevosita ishlatilmasa ham, tur xalqi haqida ma'lumotlar mavjudligi aytilgan. Bu kitobda Amudaryo va Sirdaryo qo'shilishi atrofidagi dasht va cho'llarning nomi bo'lsa, o'rta asrlarda va XX asr boshlarigacha, Amudaryo-Sirdaryoning o'zi, ya'ni Transoxiana[Movarounnahr] nomi bilan mashxur bo'lgan. 1888-yilda Hidistonda Muhammad podshoh tomonidan tuzilgan fors tilining "Farhanggi Anandraj" izohli lug'atida Turon hududi quyidagicha ko'rsatilgan. ["Turon Turkistonga o'xshamaydi. Bu hudud arablar tomonidan bosib olingach, Movarounnahr deb atala boshlandi....Movarounnahr sharqiy chegarasi Farg'ona, g'arbi Samarqand va eng katta Xorazm, shimoliy – Toshkent, janubi Balx, Turon viloyati"] [Farganhi Anandraj,1888]. Qadimgi yunon manbalarida [milodan oldingi 4 – 3-mingyilliklar] Amudaryo Ox [Oks] deb atalgan, keyinchalik esa undan shimalda joylashgan yerlarga nisbatan Transoxiana [Transoksiya], ya'ni "Oks daryosining orqa tomoni" atamasi kiritilgan. Xitoy manbalarida "Xi-yu" [milodan oldingi 2-mingyillikdan boshlab], ya'ni "G'arbiy o'lka" atamasi ishlatilgan. Ilk bor G'arbiy o'lka atamasi xitoy tarixchisi Sima Sian [milodan oldingi 2 mingyillik]ning "Tarixiy xotira" asarida tasviflangan[Абдулаҳат Хўжаев,

2001.11]. Arablar Turonni Movarounnahr, ya’ni “daryoning orti tomoni” deb atagan bo‘lsa, keyinchalik forslar uni o‘z tillariga tarjima qilib, ba’zan “Vorarud” va “Varojayhun”, ya’ni “daryoning orqa tomoni” deb ham atar edilar. Arab geograf olimi al-Muqaddasiy [10 yuzyillik]ning asarida Turon mintaqasini “al-Haytal” deb ataganligi, arablar bu nomni Eftaliylarga nisbatan ishlatganlar[Al-Muqaddasiy, 1897.98]. Ya’na bir “Bilod – al turk” ham “Turon” hududining nomi sifatida qo‘llagan. Al-Haytal islam dinini qabul qilgan turklarning hududiga nisbatan[Beruniy asarida]. “Bilod-al turk” islam dinini qabul qilmagan turklar yeriga nisbatan ishlatilgan[Mahmud Qashg‘ariy]. Bu atamalar hududiy jihatdan Movarounnahr va Turkiston atamalariga ma’nodosh so‘z bo‘lgan. X.Vamberining fikricha, arablar Turon hududiga bosqinchilik yurushlarini boshlagan vaqtida bu yerlarni Movarounnahr deb atamagan. Qutayba Turon hududiga bostirib kelgan vaqtida bu yerni Turon deb nomlagan. Ya’ni “*Turon askarlarini kuch bilan yenga olmasligini bilgach, hiyla yo‘liga o‘tganligini va birlashgan turk, sug‘d askarlarini ichiga ayg‘oqchi yuborib, fitna qilgani*” haqida ma’lumotlar bor[X. Вамбери, 1990.2].

Dastlab islomgacha bo‘lgan chog‘da qanday manbalardan bu haqida ma’lumot olamiz?

Turon hududidi qadimgi chog‘dan topilgan topilmalar xususida to‘xtalsak, ularda Turon atamasi haqida turlicha ma’lumot uchraydi.

Islomdan avvalgi bir qator sharqiy eroniylardan tili bitiklarda antroponom sifatida twrk so‘zi uchraydi.

Turon joy nomi birinchi bo‘lib 3 – 4 yuzyillikda Sosoniylarning muhrlaridagi pahlaviy yozuvlarida qayd etilgan. Bu Turon atamasining geosiyosiy atama sifatida dastlabki qo‘llanishini ko‘rsatadi. **Sosoniylar davrida**, Turon atamasi **Kushonlar, Xioniylar, Kidariylar** va **Eftallar** kabi xalqlarga nisbatan ishlatilgan. Bu bilan anglashimiz mumkunki, Turon atamasi ma’lum hududga nisbatan ishlatilib, geografik bir hududni anglatgan.[V.G.Lukonin,1969.55-147]. Hozirgacha eng qadimgi Turon atamasining qo‘llanilishi ushbu muhrlar orqali ma’lum. Tehrondagi muzeylardan birida Forig‘iy jamg‘armasi deb atalgan Sosoniylarning chog‘iga tegishli muhrlar majmuasi bor. Unda 4 – 5 yuzyilliklardan 7 – 8 yuzyilliklarga qadar Sosoniylarning boshqaruv tizimi va uning mahalliy ma’muriyatlarida ishlatilgan muhrlar jamlangan. Barcha muhrlarning bir tomonida pahlaviy tilidagi yozuvlar, orqa tomonida esa odamlar va turli hayvonlarning suratlari yoki ramzlari tasvirlangan. Mazkur muhrlarning 5 – 6-yuzyilliklarga mansub bir nechtasida “Turon” va “Turonlik” so‘zleri qayd etilgan. Bu muhrlarning egalari Sosoniylarning xizmat qiluvchi turonliklar bo‘lib, ular “Turon” atamasining muayyan bir hududga nisbatan ishlatilganligidan dalolat beradi[III.C.Камолиддин, 2023.117]. Turon bu vaqtida ham geografik nom vazifasini saqlab qolgan. 4 – 5-yuzyilliklarda “Turon” atamasi xiyoniylarning davlati, 6 – 8-yuzyilliklarda “Turkiston” atamasi Turk xoqonligiga nisbatan ishlatilib kelingan. Yana yaqin yillarda bir qator tadqiqotlar davomida islomdan oldin, Sug‘d tangalarining katta qismi A. A. Musayeva tomonidan o‘rganilib, ular shartli ravishda “Turon tangalari” deb talqin qilingan.[A.A.Mycaeba,

2013.192]. 6 – yuzyillikga tegishli Samarqand tangalarining old tomonida biroz qisiq ko‘zli, yumoloq yuzli uzun sochli hukmdor tasviri, orqasida tamg‘a va tepasida sug‘dcha “hukmdor Turak” deb yozilgan yozuv mavjud[О. И. Смирнова, 1970]. Samarqand tangalarining orasida 7 – yuzyillik boshlariga taalluqli “*xwb twrnyn-turon hukmdori*” yoki “Turon hukmdori xoqon” iboralari bilan zarb qilingan tangalar mavjud. Turon davlat nomi sifatida ishlatilgan.

Tanga va muhrlardan boshqa devoriy sur’atlarda ham Turon atamasining qo’llanilishiga duch kelishimiz mumkin. 7-yuzyillik o‘rtalarida Samarqandga elchi yuborgan Chag‘oniyon hukmdorining ismi “twr’nts” [Turontosh] shaklida Afrosiyob devoriy suratlaridagi bitiklar orqali ma’lum bo‘ladi[F. Бобоёров 2015.17-24]. V. A. Livshisning fikricha, Turon toponimi mintaqa nomi va unga qo’shib yozilayotgan +yan so‘zi esa tegishlilik ma’nosini ifodalaydi deb aytishgan[B. A. Лившиц 2008]. Mazkur tangalardagi “Turon hukmdori” iborasi tarkibidagi “Turon” atamasi Markaziy Osiyoning qadimiy nomlaridan biri – Turonga aloqadorligini ko‘rsatadigan bir qator dalillar mavjud. Bu tanga yozuvlarni izohlash uchun chet ellik sug‘dshunos olimlar [Sims Williams,R.Fray, Y.Yoshida]ga ham murojat qilindi. Ular bu tangalarni turli tarzda o‘qib xulosa berishdi[F. Бобоёров, 2015. 17-24].

7 – 8 yuzyilliklarga mansub Kesh tangalaridagi sug‘d yozuvlarda ham uchraydigan [Turon hukmdori] ma’lumotidan kelib chiqsak, shu vaqtida Turon deb atalganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu Turon va Turkiston, Turiston atamalari ma’nodosh so‘zlar sifatida ayni vaqtning o‘zida bitta geografik hududga nisbatan ishlatilgan yana bir ma’lumotga ega bo‘lamiz. Bunga misol qilib, 265-yilda sosoniylar hukmdori Shopur I Sakiston, Turiston va Hindiston dengiz qirg‘oqlarini Narsega bergen[Ш.К.Камолиддин, 2002.61-68]. Shu ma’lumotlardan kelib chiqib, tanga-pullarda uchraydigan atamalarning rasmiy ma’no kasb etishi hisobga olinadigan bo‘lsa, turk xoqonlari o‘z davlatini “Turon” deb atagan deb hisoblassak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Turon degan nom va Turon geografiyası 6 – 7-yuzyillikdan boshlab Turk xoqonligi chegaralariga to‘g‘ri kelishi va bu yerlarga Amudaryoning janubidagi yerlar kirishi aytilgan. 9 – 10-yuzyillikda yashab ijod etgan, shu diyorda ham bo‘lib, o‘lkaning bir qancha geografik nomlari haqida ma’lumotlar bergen, arab geografi Ibn Xurdodbeh [820 – 913] “shoh” unvonli podshohlarni sanab o‘tganda, Hinduvonshoh, Toziyonshoh, Kobulonshoh, Sijistonshoh, Kermenshoh kabi hukmdorlar qatorida “turklar hukmdori Turonshoh”ni ham qayd etgan[Ibn Xordadbik, 2008.30].

Arab xalifaligi chog‘ida, xususan, Somoniylar hukmronligi chog‘ida, Turon “Movarounnahr” deb atagan. Lekin, “Turon” va “Turkiston” atamalari unutilmagan, balki Markaziy Osiyodagi Arab xalifaligidan tashqaridagi hududlarga, xususan, Turgash, Qarluq va Uyg‘ur xonliklariga nisbatan ishlatilgan. 11 – yuzyillikda hokimiyat Qoraxoniylar qo‘liga o‘tgandan keyin Markaziy Osiyo yana Turkiston deb atala boshlagan.

Mahmud G‘aznaviy o‘ziga qarashli yerlarni “Xuroson”, Amudaryo orqasidagi yerlarni, ya’ni Qoraxoniylarga qarashli hududlarni “Turkiston” deb atagan. Mo‘g‘illar istilosidan

keyin, Turkiston "Chig'atoy ulusi", uning aholisini esa "chig'atoy xalqi" deb atalgan[III.C.Камолиддин, 2023.117]. Turon [Turlar] nomi Firdavsiy [11-yuzyillik]ning "Shohnoma" tarixiy dostonida keng qo'llanilgan. Nafaqat qo'llanilgan balki, ilk bora bu asar orqali "turklar davlati" ma'nosida ishlatilgan asar hisoblanadi. "Shohnoma" ham zardushtiylik manbalari kabi islomgacha bo'lgan davrda Turon tarixi, madaniy va tarixiy geografiyasiga oid muhim manba hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, aynan "Shohnoma" tufayli eronliklar va turklar qo'shni qabilalarning mulklari chegarasini mahalliylashtirish mumkin bo'ldi. Asarda turk xonlaridan birining qizi sosoniyalar shahanshohining xotini sifatida tilga olingan ayolning ismi [taxallusi] Turanduht so'zma-so'z tarjimasi "Turonlik qiz" va "Turk hukmdorining qizi" bo'lgan degan. Turon atamasi geografik atama emas, turli manbalarda shaxs nomi sifatida uchraydi degan fikr ham bor. Yuqorida aytganimizdek, Samarqandga elchilar yuborgan qo'shni Chag'aniyon hukmdori nomini Afrosiyob [Samarqand] saroyi devoriy suratlarda Turon shaklida tasvirlangan yozuvlarini ko'rish mumkin[Л. И. Альбаум, 1975.55].

Asadiy Tusiy [11-yuzyillik]ning "Lughati-furs" asarida yozilishicha: Turon mamlakati Turkistonni va Xurosonning sharqiy qismini o'z ichiga olganligini yozib o'tgan bu kabi ma'lumotlar ham uchraydi[Asadiy Tusiy,1319/1940.367]. 11-yuzyillikda Turon keng tushuncha ekanligini va uning ichiga Turkiston ham kirib ketayotganliga guvoh bo'lamiz. Yana bir arab geografi va sayyoh olimi Muqaddasiy [947 – 1000] "Ahsan at taqosim fi ma'rifat al-aqomi" [Iqlimi o'rghanish uchun eng yaxshi qo'llanma] asarining bir bo'limida Ajam hududi [Xuroson, Seyiston, Movarounnahr] tavsiflangan[Al-Muqaddasi, 1897.98]. Bu asar vatanimiz toponimiyasi tarixini juda qadimiy ekanligini ko'rsatadi. Xorazmiy[vaf.997] "Mafotiq ul-ulum"[Ilmlar kaliti] nomli asarida[11 yuzyillikda] shunday ma'lumotlar bor. "Jayhun daryosining qirg'oqlarini eronliklar Marzi Turon deb atashadi, ya'ni turklarning chegarasi ma'nosida, biroq Xuroson aholisi uni Marzi Eron, ya'ni Iraq chegarasi deb ataydilar[P. Баходиров, 2009.14]. Eron va Turon chegarasiga kelsak, oriylar va turklar mulklari o'rtasidagi chegara chizig'inining ta'rifi afsonaviy kamonchi Ereksh [o'rta fors va fors Araxsh] haqidagi afsonada qayd etilgan[Avesto va Pahlaviy manbalarida]. O'rta yuzyilliklar adabiyotlarida [Tabariy, Beruniy, Firdavsiy] Eron va Turon hududiy chegaralari Amudaryo orqali belgilanadi. Beruniy asarlarida "Turon"ga berilgan izohni 10-yuzyilliklarda Qoraxoniylar Movarounnahrni qo'lga kiritgandan so'ng paydo bo'lgan degan talqini o'zini oqlamaydi. Sababi Beruniy aynan o'z asarlarini yozayotgan vaqtarda, Qoraxoniylar bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatib ulgurmasdan "Turon" nomi "turklar yashaydigan o'lka " sifatida ishlatila boshlangan edi.

Yana bir tarixiy manbalardan biri bo'lgan Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida 1391-yilga mansub uyg'ur yozuvida shunday yozilgan: Temur Bek o'zini "Turon sulton'i" deb atagan. Amir Temur so'zi "Biz kim – mulki-Turon, amiri Turkistonmiz, biz – millatlarning eng ulug'i – Turkning bosh bo'g'inimiz". Bu ma'lumotdan biz Turon Turkistondan katta hudud qilib aytilayotganiga guvoh bo'lamiz. Turon hududidagi

Turkistonning amirimiz deb yozib o'tilgan[Темур тузуклари, 1991.199]. Amir Temur Xorazmdan g'alaba bilan qaytgach, butun Turonni o'z qo'l ostida birlashtiradi. Sayhun va Jayhun oralig'idagi hudud torlik qiladi degan fikrga kelgan. Biz ma'lumotdan bilishimiz mumkinki, Jayhun va Sayhun orasidagi hududini Turon deb aytgan[X.Вамбери, 1990.26].

Shu chog'lar davomi sifatida Boburning "Boburnoma" asarida 15-yuzyillikning oxiri va 16-yuzyillikning boshlarida O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatbaho ma'lumotlar bor. Professor H. Hasanovning ta'kidlashicha, "Boburnoma"da 1000 ga yaqin geografik nom tilga olingan. Turonga doir nomlarning ko'pchiligi hamon o'sha chog'dagidek nomlar kabi yoziladi. Samarqand, Turkiston, Triaiz-Termiz. Bu vaqtida asardan Turon atamasi qo'llanilmaganligini, o'rniga Turkiston va Movarounnahr atamalari qo'llanilganligini guvohi bo'lamiz. O'zbekiston atamasi 14 - 15 yuzyilliklarda mavjud bo'lgan, lekin bu chog'da "O'zbekiston" deganda, Oltin O'rda davlati nazarda tutilgan. 16-yuzyillikda Shayboniyalar hukmronligidan boshlab Turon mintaqasi "O'zbekiston" deb atalgan[III.С.Камолиддин, 2023.117]. Xonliklar davri mang'it sulolasidan bo'lgan Buxoro amirlari o'zlarini "Turkiston va Turon hukmdorlari sifatida ko'rsatishgan. Masalan, amir Haydar[1800-1826] bir qancha maktubida o'zini – "Turkiston va Turon-zamin podshohi" deb atagan. 18 – asrda O'zbek atamasining ishlatilishi 1861 yilga tegishli hujjatda bu nom keladi. Rus va turk urushlarida 1790 yilda 5 ta Qo'qonlik shaxsni urushda qatnashganligi haqidagi hujjat. Bu hujjatda bu 5 ta shaxsning qatnashgani va ularning yozma xatida bizga 5 ta qilich berishini, shaxslar ko'ngilli bb keldi degan ma'lumot keltiriladi. Bu bilan biz 19 – asrgacha O'zbek atamasining keltirilishi haqida ma'lumot bor[Usmoniyalar arxivi]

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, Turon mintaqasining eng qadimgi nomlari Turon va Turkiston bo'lib, bu nomlarni ilk bor forslar 3 – 5-yuzyilliklarda ma'nodosh atamalar sifatida muomilaga kiritganlar. Qadimgi forslar esa bu nomlarni Turondagi qo'shnilar Kushonlar, Qang', Xioniylar, Kidariylar va Eftallar davlatlariga nisbatan ishlatganlar. Bundan tashqari, 6 – 8-yuzyilliklarda Turon G'arbiy Turk xoqonligiga qarashli bo'lgan va Turkiston deb atalgan. Bu nomni ham ilk bor forslar muomilaga kiritganlar. Arablar istilosidan keyin, 9 – 10-yuzyilliklarda Somoniylar chog'ida Turon mintaqasi manbalarda Movarouannahr deb atalgan. 11-yuzyillidan boshlab 20-yuzyillik boshlarigacha Turon mintaqasi manbalarda yana Turkiston deb atalgan. 20-yuzyillik boshlarida ruslar "O'rta Osiyo" va "Markaziy Osiyo" atamalarini muomilaga kiritdi. Demak, Turon mintaqasining eng qadimgi va asl nomi Turon va Turkiston bo'lib, bu nomlar butun tariximiz davomida milliy aholi tomonida ishlatilib kelingan. Turon mintaqasining Movarouannahr, Vorarud, al-Haytal, Transokiana, Xi-yu [G'arbiy o'lka] atamalari bizning hududga bostirib kelgan bosqinchilar tominidan olib kiritilgan va qisqa vaqt ichida ishlatilgan va juda ham kam manbalarda uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абулғозий Баҳодирхон. "Шажарайи турк". Нашрга тайёрловчи Қ. Муни-ров, Қ. Маҳмудов. Тошкент, 1992 йил, 15-6-бет.
2. Аъзамова М.. "Ариянам Вайжа географик ном тарихи" // Ижтимоий гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Тошкент, 2024 йил, № S/3-4, 25-29-бет.
3. Асадий Тусий [XI аср] нинг "Lughati furs". Техрон, 1319/1940 йил 367-бет.
4. Асқаров. А. "Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи" [ўқув қўлланма]. Тошкент, 2007 йил, 207-бет.
5. Баходиров Р. "История Востока в 'Ключах наук'" // "Шарқшунослик". 2009 йил, 14-бет.
6. Бобоёров Ғ., Б. Ғойибов, А. Кубатин. "Ўрта аср Самарқанд тангларида 'Турон' топоними" // Археология Ўзбекистонда. Самарқанд, 2015 йил, 2 [11-сон], 17-24 бетлар.
7. Бобоёров Ғ.. "Фарбий Турк хоқонлиги: тарихи ва танга пул тизими". Тошкент, 2021 йил.
8. Бобоёров Ғ.. "Илк ўрта аср манбаларида Туркистан атамаси мақоласи". Тошкент, 2004 йил, 3-4 бет.
9. Бўриев О.. "Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё [тарихий географик лавҳалар]". Тошкент, 1997 йил, 4-бет.
10. Вайнберг. Б. И. "Этнография Турана в Древности 'VII в. до н.е.-VIII в. н.е.'" Москва, 1999 йил, 88-бет.
11. Вамбери Х.. "Бухоро ёки Мовароуннахр тарихи". Тошкент, 1990 йил, 26-бет.
12. Ибн Фадлан [ер-рисале], Эл-Гирнатий [тўхфату'l элбаб ва нуҳбетул араб], ибн Ҳавқал [сурету'l арз] сафарномаларда турк фигури. Өмер Фарук Өзтюрк. Истанбул, 2019 йил, 19-6-бет.
13. Ибн Ҳавқал. "Китоб Сурат ал Ард" [Ернинг сурати китоби] "Мовароун-нахр". Ш. Камолиддин таржимаси. Тошкент, 2011 йил, 13-бет.
14. Ибн Хордадбек. "Йоллар ва Улкалар Китоби". Истанбул, туркчага Мурат Агари таржимаси. Истанбул, 2008 йил, 30-бет.
15. Камолиддин Ш. С.. "Древнетюркская топонимия в Средней Азии". 2006 йил.
16. Камолиддин Ш. С.. "Марказий Осиё тарихи замонавий тарихшуносли-гида ёндашувлар". Тошкент, 2023 йил, 117-бет.
17. Камолиддин Ш. С.. "Марказий Осиё тарихи тарихшунослигининг дол-зарб муаммолари" // Тарихшунослик, манбашунослик ва тарихий тадқиқот усуллари [Марказий Осиё мамлакатлари] мутахассислиги бўйича магистратура талабаларига мўлжалланган ўқув қўлланмаси. Тошкент, 2017 йил.
18. Камолиддин Ш.. "Вопросу об употреблении географических названий 'Мавераннахр' и 'Туркестан'" // "O'zbekiston tarixi" журнали. Тошкент, 2002 йил, 4-сон, 61-68-бет.
19. Лившиц. В. А. "Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья". Москва, 2008 йил.
20. Лившиц. В. "The Sogdian Wall Inscriptions on the Site of Afrasiab". Москва, 63-64 бет.

21. Луконин. В. Г. "Культура сасанидского Ирана". Москва, 1969 йил, 55-147-бет.
22. Махмуд ибн Вали. "Море Тайн относительно доблестей благородных [география] перевод Б. А. Ахмедова". Тошкент, 1977 йил, 113-бет.
23. Махмуд Кошғарий. "Туркий сўзлар девони" [Девону луғат-ут турк]. Тошкент, 1963 йил, 463-бет.
24. Мирзо Улуғбек. "Тўрт улус тарихи". Тошкент, 1994 йил, 23-39-бет.
25. Мусаева. А. А. "Турецкие монеты III-VIII вв". Москва, 2013 йил, 192-бет.
26. Мухаммаджонов. А. Р. "Кеш" ойкоми ва "Кат" субстрактининг этноними // Шаҳрисабз шаҳрининг жаҳон тарихида тутган ўрни. Тошкент, 2002 йил, 12-15-бет.
27. Мухаммадхакимхон Тўра. "Мунтахоб ат-Таворих" [Хўқанд ва Бухоро тарихи саёҳат ва хотиралар]. Тошкент, 2010 йил, 307-бет.
28. Ражабов Қ.. Алп Эр Тўнга [Афросиёб]. Тошкент. 2014.йил 47-бет.
29. Смирнова О. И.. "Очерк из истории Согда". Москва, 1970 йил.
30. Т. Тузуклари [форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Ҳабибулла Кароматов таржимаси]. Тошкент, 1991 йил, 199-бет.
31. Тур //Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-жилд. 632-бет.
32. Ўлжаева Ш."Турон", "Туркистон", "Ўрта Осиё", "Марказий Осиё" атамаларининг тарихига оид бази қарашлар мақоласи. 2017 йил, 27-январ.
33. Ўринбоев. А.Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси. Т., 1960, 84-85 бет; А. Асқаров "Баъзи саволлар тарихида ўзбек давлатлиги" // ОNU, 1997 йил, 3-4 сонлари, 67-бет; А. Ахмедов "Нега Турон деб аталади?" // Турон, 1-сон, 1992 йил, 5-6-бет; М. Исҳаков. "Номи азал Туркистон" // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 1993 йил, 1-сон, 45-бет.; Б. Маннонов "Туркистон ва Марказий Осиё" // Мулоқот, 2-сон, 1998 йил, 68-бет; Ш. Камо-лиддин "К вопросу об употреблении географических названий 'Мавераннахр' и 'Туркестан'" // "O'zbekiston tarixi", 2002 йил, 4-сон, 61-68 бетлар; Қ. Маҳмудов. "Қадимги Туркистон". 2011 йил, 151-бет.
34. Фирдавсий.Шоҳнома. [Биринчи китоб]. Форсийдан Ш.Шомуҳаммедов таржимаси. Т 1975 йил 316-bet, ayniqsa 50-60-oyatlar.
35. Фрай Р.. "Наследие Ирана". Москва, 2002 йил.
36. Хожамбердиев Э.. Туроннинг қадимги ва илк ўрта асрлар тарихининг Эронда ўрганилишига оид // "O'zbekiston tarixi" журнали. Тошкент. 2024 йил 2-сони. 77-78-бетлар.
37. Хўжаев Абдулаҳат, Комилжон Хўжаев. "Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши". Тошкент, 2001 йил, 11-бет.
38. Хўжаев. А.Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши // "Мозийдан садо" журнали. 2002 йил 2-сон.
39. Юсуф Хос Ҳожиб. "Кутадғу билиг". Тошкент, 1984 йил, 13-бет.
40. Ömer Faruk Öztürk ibn battûta [er-rihle], ibn fadlân [er-risâle], el-girnâtî [tuhfetu'l elbâb ve nuhbetu'l acâb] ve ibn havkal [sûretu'l arz] seyahatnamelerinde türk figürü. Istanbul- 2019 йил 19-бет.